

QON YO'LI BILAN YUQADIGON GINEKOLOGIK KASALLIKLAR

Yuldasheva Muxlisaxon

Qo'qon Universiteti Andijon Filiali o'qituvchisi

Solidjanova Mahliyo Soyibjon qizi

Qo'qon Universiteti Andijon Filiali talabasi

Annotatsiya : Qon yo'li bilan yuqadigon ginekologik kasalliklar bu- asosan jinsiy aloqa orqali bir shaxsdan boshqasiga yuqadigon infeksiyon kasalik bo'lib ,bular ayollarni reproduktiv salomatligiga ta'sir ko'rsatadi. Bunday kasalliklar ko'p hollarda yashirin kechadi,lekin kelajakda bepushtlik,homiladorlik asoratlari, hatto saraton kasaligini olib kelishi mumkun.Ushbu ishda bu kasallik turlari,havfli omillari va profilaktikasi keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: gonoreya, xlamidioz, trichomonas, treponem pallidum, ureaplasma, bacterial vaginoz.

Kirish.Qon yo'li orqali yuqadigan patogenlar — inson qoni, qon bilan aralashgan suyuqliklar yoki qon bilan ifloslangan asbob-uskunalar orqali yuqishi mumkin bo'lgan mikroorganizmlar — jiddiy sog'liq xavfini tug'diradi. Human Immunodeficiency Virus (HIV), Hepatitis B (HBV) va Hepatitis C (HCV) kasalliklari ayniqsa ahamiyatlidir. Maqolaning maqsadi qon yo'li orqali yuqadigan kasalliklarning etiologiyasi, yuqish yo'llari, epidemiologiyasi, diagnostikasi va profilaktikasi bo'yicha ilmiy asoslangan umumiy tahlil berishdan iborat.

Asosiy qism.Etiologiya va asosiy patogenlar

Qon yo'li orqali yuqadigan kasalliklar turli qo'zg'atuvchilarga bog'liq. Eng keng tarqalganlari quyidagilardir:

- HBV — qon va qon mahsulotlari, jarrohlik asbob-uskunalar orqali yuqadi.
- HCV — surunkali jigar infeksiyalariga olib keladi.

• HIV — qon, qon mahsulotlari, xavfsiz bo‘lmagan tibbiy protseduralar yoki jinsiy aloqa orqali yuqadi.

Qon yo‘li orqali yuqishning asosiy yo‘llari: igna yoki boshqa o‘tkir asboblar orqali, qon mahsulotlari yoki organ transplantatsiyasi orqali, onadan bolaga tug‘ruq vaqtida, shuningdek, gigiyena qoidalariga rioya qilinmagan tibbiy muolajalar natijasida yuqadi. Tibbiyot xodimlari yuqori xavf guruhiga kiradi.

Qon yo‘li orqali yuqadigan kasalliklar butun dunyoda dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Tibbiyot xodimlari orasida igna bilan tan jarohati orqali yuqish ehtimoli HBV 6–30%, HCV 1.8%, HIV 0.3% ni tashkil etadi.

Kasalliklar klinik jihatdan o‘ziga xos belgilar bilan kechadi: HBV va HCV jigar faoliyatini buzadi, HIV esa immun tizimini susaytiradi. Diagnostika serologik va molekulyar testlar (masalan, PCR) yordamida amalga oshiriladi.

Profilaktika choralariga universal xavfsizlik qoidalari, HBV vaktsinasiyasi, qon mahsulotlarini tekshirish, tibbiy asbob-uskunalarni sterilizatsiya qilish va himoya vositalaridan foydalanish kiradi. Yuqish holatida esa darhol tibbiy baholash va post-ekspozitsiya profilaktikasi (PEP) tavsiya etiladi.

Qon yo‘li bilan yuqadigon ginekologik kasalliklarning asosiy turlari:

Xlamidioz-bu bakterial infeksiya bo‘lib, ayollarda bachadon naylari yallig‘lanishi, bepushtlik va ektopik homiladorlikka sabab bo‘ladi.

Gonoreya (*Neisseria gonorrhoeae*)-jinsiy a‘zolarida yallig‘lanish, oqindi va og‘riq keltirib chiqarad. So‘nggi vaqtlarda gonoreya antibiotiklarga chidamli shakilda aniqlanib kelmoqda.

Trichomonoz(*Trichomonas vaginalis*)-parazitar infeksiya bo‘lib, ko‘p holarda simptomsiz o‘tadi, ammo bachadon bo‘yin va qin yalig‘lanishiga sabab bo‘ladi.

Sifiliz(*Treponema pallidum*)- qon yo‘li bilan yuqadigon og‘ir bakterial kasalik, davolanmasa butun organizmga tarqalib ketadi.

Inson Papilloma Virusi(Hpv)- Ayollarda bachadon bo‘yni saratoni rivojlanishiga sabab bo‘lishi mumkun.

Genital Gerpes(Hsv-2)-Teri va shilliq qavatlarda pufakchalar hosil qiladi, virus umrboqiy saqlanib qoladi.

Kam o'rganilgan infeksiyalar.

Ba'zi hollarda etibor berilmaydigan infeksiyalar jidiy infeksiya turi bo'lishi mumkun.

Mycoplasma hominis va Ureaplasma urealyticum-jinsiy aloqa orqali yuqib, bachadon naylariga jiddiy zarar yetkazadi.

Bakterial vaginoz-oldin jinsiy infeksiya hisoblanmagan ,ammo hozirgi tadqiqotlar uni jinsiy sherik orqali yuqishi tasdiqlanmoqda.

Bu infeksiyalar ayollarda qindan noxush hidlar,oqindi va og'riq keltirib chiqaradi,lekin ko'p hollarda yashirin shaklda kechadi.

Ayollar jinsiy yo'li orqali yuqadigan infeksiyalar erkaklarnikiga qaraganda og'irroq oqibatlar olib kelishi mumkun. Sababi ayollar jinsiy organlari tuzilishi infeksiyalar uchun qulay muhit hisoblanadi. Natijada bachadon naylari yallig'lanadi(salpingit)

Homila bachadon tashqarisida rivojlanishi (ekotopik homiladorlik)

Qorin pastida surunkali og'riqlar paydo bo'ladi.

Profilaktika va yangi yondashuvlar:

- 1 Bir jinsiy sherik bilan barqaror munosabatda bo'lish.
- 2 HPV va gepatit B ga qarshi emlash-bachadon bo'yni saratoni va gepatit xavfini kamaytiradi.
- 3 Muntazam tibbiy tekshiruv-simptom bo'lmasa ham yiliga kamida bir marta skriningdan o'tish lozim.
- 4 Erkak sherikni ham davolash- bu infeksiya qaytalanishining oldini oladi.

Jamiyatdagi muammo

Ko'plab ayollar bu infeksiyalar haqida uyalish yoki qo'rquv sababli shifokorga murojat qilmaydi. Natijada kasaliklar yashirin shaklda davom etadi va boshqa odamlarga yuqadi. Jamoatchilikda sog'lom jinsiy hayot , tibbiy savodxonlik va muntazam tekshiruv madaniyatini rivojlantirish zarur.

Xulosa

Qon yo'li bilan yuqadigon ginekologik kasalliklar nafaqat shaxsiy sog'liq, balki jamiyatning umumiy reproduktiv salomatlig uchun ham jiddiy xavfdir. Ulardan himoyalash uchun profilaktika, erta tashxis va to'liq davolanish muhim. Eng asosiysi-bu mavzuda ochiq gaplashish va har bir insonning o'z sog'lig'iga mas'uliyatli yondashuvi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmedova M. M., Ro'zieva N. X. Ayollar kasalliklari va akusherlik asoslari. – Toshkent: Ibrat nashriyoti, 2021. – 412 b.
2. Musaeva N. A. Tibbiy mikrobiologiya va virusologiya. – Toshkent: Tibbiyot nashriyoti, 2019. – 356 b.
3. Jumaboev A. T. Infektsion kasalliklar va ularning profilaktikasi. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020. – 298 b.
4. U.S. Department of Health and Human Services, Office on Women's Health. STI and women's health. 2023. [<https://womenshealth.gov/a-z-topics/sexually-transmitted-infections>]
5. The Guardian. Bacterial vaginosis can be passed to women by men. 2025. [<https://www.theguardian.com/society/2025/mar/05/bacterial-vaginosis-can-be-passed-to-women-by-men-researchers-find>]